



**XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI  
NAVBAHOR TUMAN KENGASHINING  
QARORI**

---



---

2023 - yil 27 - noyabr

VI-66-127-5-73-K/23

Navbahor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 25 noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Navbahor tumanida 2022-2023 yillarda amalga oshirish yuzasidan olib borilgan ishlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 25 noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Navbahor tumanida 2022-2023 yillarda amalga oshirish yuzasidan tumanning “Yo‘l xarita”si, shuningdek, har bir sektor kesimida “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Bunda 5 ta tashabbus belgilanib, har bir tashabbus bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

**1-tashabbus. Elektr energiyasini tejash:**

Tumandagi tashkilotlarga quyosh panellarini o‘rnatish

Navbahor tumani bo‘yicha jami 25 ta tashkilotga quvvati 1188 kWt qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish rejasi belgilangan.

Xozirgi kunda qadar jami 89 ta tashkilot va 190 ta axoli xonodonlariga xonadonlarga 1181 kWt li quyosh panellari va 7100 Litr xajmli quyosh suv isitish kollektrlari o‘rnatildi.

Quyosh suv isitish kollektrlarini o‘rnatish rejasi 4000 L bo‘lib, amalda 7100 L xajmga bajarildi, shundan 5000 L tadbirkorlik sub’ektlariga, 2100 L axoli xonodonlariga o‘rnatildi.

Suv nasoslarini samarali ishlatish tizimini yo‘lga qo‘yish

Nasoslarni o‘chirilish davomida, rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirilib, ikki dona suv yig‘ish tarqatish inshootidagi nasoslar zamonaviy energiya tejamkor nasoslarga almashtirildi.

Sug‘orish va ekin ekish mavsumiga qadar, mavjud kanal va suv ariqlarida ta’mirlash tiklash ishlari amalga oshirildi.

### **2-tashabbus. “Yashil makon” dasturining Navoiy viloyati tajribasini yaratish va amalga oshirish:**

2022-2023 yilda fermer xo‘jaliklari dala chetlariga 1594 ming tut va 64 ming dona uzum ko‘chatlari ekish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, bugungi kunda dala chetlariga uzum ko‘chatlari uchun shpaller o‘rnatish ishlari amalga oshirilayotgan bo‘lib, bugungi kunga qadar 6500 dona shpallerlar olib kelib o‘rnatildi.

Dala chetlariga bahorgi tut va tok ko‘chat ekish ishlari amalga oshirilayotgan bo‘lib 65,1 ming tut va 26 ming tok ko‘chatlari ekildi. Kuz mavsumida fermer xo‘jaliklari dala chetlariga bugungi kunga qadar 230,0 ming dona tut ko‘chatlari ekilib, Yashil makon platformasiga kiritildi

Tumanda Rayxon va yalpiz ekilishi bo‘yicha tumanda 41 ta mahalla fuqarolar yig‘inida binosi atrofiga 0,52 hektar yer maydoniga rayhon ko‘chati ekildi, shuningdek, 83265 ta aholi xonadonlariga 20 hektar bo‘sh turgan yer maydoni atrofiga va ariq bo‘ylariga hamda 16 ta ko‘p qavatli uy-joylar atrofidagi 1.7 hektar bo‘sh yer maydonlariga, “Keskanterak” mahallasida urug‘lik jamg‘arish uchun 1.5 hektar, Suv xujaligi va meloratsiya kasb-xunar kolleji xududidagi 1 hektar yer maydoniga rayhon ko‘chati o‘tqazildi. Xozirgi kunda ekilgan Rayxon ko‘chatlari o‘rib olinib, 2024 yilga ekish uchun urug‘lik zaxirasi jamg‘arildi.

Shuningdek, 41 ta mahalla fuqarolar yig‘inida binosi atrofiga 0,72 hektar yer maydoniga yalpiz ko‘chati ekildi, shuningdek, 51778 ta aholi xonadonlariga 20 hektar bo‘sh turgan yer maydoni atrofiga va ariq bo‘ylariga hamda 12 ta ko‘p qavatli uy-joylar atrofidagi 0.10 hektar bo‘sh yer maydonlariga yalpiz ko‘chati o‘tqazildi.

### **3-tashabbus. Yaylovlarni ishga solish orqali echkichilik va qo‘ychilikni keskin rivojlantirish**

Tumanda yaylovlardan samarali foydalanish orqali echkichilik va qo‘ychilikni jadal rivojlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida, “Navbahor tekstil” MChJ tomonidan 10 ming bosh mayda shoxli chorva mollari chetdan keltirish rejalashtirildi bo‘lib, yaylov yerlariga imtiyozli kredit asosida echki va qo‘y sotib olish bo‘yicha fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlik sub’ektlariga targ‘ibot-tashviqot

ishlari olib borildi.

#### **4-tashabbus. Infratuzilma ob'ektlari qurilishida resurslarni 30 foizgacha tejash**

Navbahor tuman hokimligida 2023 yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan qurilish ta'mirlash ob'ektlaridagi qurilish ishlarining sifatlari bajarilishi, jamoatchilik nazoratini o'rnatish yuzasidan tegishli soha tashkilotlari rahbarlari ishtirokida kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi. 2023 yil investitsiya dasturiga kiritilgan 26-umumta'lim maktabi va 5-sonli maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun tegishli tashkilotlar tomonidan texnik shartlar taqdim etilgan. Tegishli pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari to'liq yakuniga yetkazilib, tegishli dalolatnomalar rasmiylashtirildi

#### **5-tashabbus. Yoshlar muammolarini bilan ishlash va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash:**

Tumanda yoshlarni qiziqishlari, ularni qiyinab kelayotgan muammolarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish hamda ishsiz yoshlarni aniqlab bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni belgilab olish maqsadida tumanda Yoshlar muammolarini aniqlash bo'yicha tuman maxsus komissiyasi tuzilib, 2022 yil 15 dekabr kunidan boshlab, tumanda istiqomat qiluvchi yoshlarni qayta xatlovdan o'tkazish ishlari olib borildi. Xatlov natijalariga ko'ra 27610 nafar 14-30 yosh toifasidagi yoshlar to'liq xatlovdan o'tkazilib, 291 nafar yoshlar "Yoshlar daftari" ga tavsiya etildi.

Yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida tadbirlar uchun zarur vositalar bilan ta'minlanib, Madaniyat bo'limi bilan kelishgan holda san'atkorlar taklif etildi va kontsert dasturlari o'tkazildi. Tadbir bo'lib o'tadigan sana va joy aks etadigan targ'ibot vositalarini ko'cha sardorlari va telegramm guruhlar orqali tarqatildi. Tadbirni yuqori saviyada o'tkazish va tadbir jarayonida qiziqarli viktorinalar orqali yoshlar taqdirlandi. Maktablarda madaniy tadbirlar o'tkazish bo'yicha darsdan tashqari maktablarda tizimli to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali 18 ta maktabda 5 ta to'garak faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularga 6 000 nafar o'g'il-qizlar qamrab olindi.

Shundan, 140 nafar "Yoshlar daftari" ga kiritilgan.

1-sektorda 38 nafar, 2-sektorda 26 nafar,

3-sektorda 42 nafar, 4-sektorda 34 nafar

Shundan, 22,02,2023 yil xolatiga 61 nafar "Yoshlar daftari" ga kiritilgan yoshlar ko'mak ko'rsatildi .

1-sektorda 31 nafar, 2-sektorda 5 nafar,

3-sektorda 12 nafar, 4-sektorda 13 nafar

Muhtaram Prezidentimizning joriy yil 11 apreldagi yoshlar siyosati masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlarga muvofiq tumandagi 27140 nafar 14-30 yoshdagi yoshlar uchta toifalarga ajratildi. Xususan, 16 411 nafari yashil toifa, 10 729 nafari sariq toifa hamda 635 nafari qizil toifaga ajratib olindi.

Yoshlar bilan individual ishslash tizimini joriy etish maqsadida viloyat hamda tuman korxona va tashkilotlarning 31 nafar rahbarlariga tumandagi 635 nafar yoshlar biriktirilgan holda yoshlar bilan ishslash yuzasidan 41 ta mahalla, 4 ta sektor, tuman “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

“QIZIL” toifadagi 635 nafari (2 %), shundan, 208 nafari xotin-qizlar (32,7 %): Yoshlar bilan individual ishslash tizimini monitoring qilish maqsadida “Yoshlar markazi” binosida alohida shtablar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, yoshlar muammolarini bartaraf etish holati kunlik o‘rganib chiqilmoqda.

Joriy yilning 20 oktabr holatiga, viloyat shtabi tomonidan amalga oshirilgan tahlillarga ko‘ra, “Qizil” toifadagi 635 nafar yoshlardan 635 nafari (100 %) bilan bevosita uchrashib suhbatlashilgan va yoshlarning 260 ta (40,1 %) muammolari aniqlangan bo‘lib, ularning 215 tasi (82,7 %) ijobiy hal etilgan.

Davlat sektoriga 34 nafar, Xususiy sektorga 45 nafar, mavjud fermer xujaliklariga 16 nafar, mono markazlarga 19 nafar o‘qitildi, 102 nafari o‘zini-o‘zi band qilindi. Jami 216 nafar yoshlarni bandligi ta’minlandi.

Bundan tashqari 2023 yil davomida “Yoshlar bandlik dasturi” orqali 1973 nafar yoshlar qamrab olindi hamda shu vaqtga qadar ushbu dastur orqali 1556 nafar yoshlarning bandligi ta’minlandi. Xususan 704 nafar yoshlar ta’limni keyingi bosqichiga qabul qilindi, 209 nafari doimiy ish o‘rinlariga, 46 nafari jamoat ishlariga, 83 nafari kasb-hunarga o‘qitishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, qolgan 32 nafariga subsidiya ajratildi, 251 nafariga kredit ajratib berildi, 10 nafari usta va hunarmandlarga biriktirildi.

Tumandagi yoshlarni sport bilan shug‘ullanishlarini, bush vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida 2023 yilda 8 ta mahallada 8 ta vorkaut maydonchalari qurish yuzasidan taklif loyihamalar ishlab chiqilib, tegishli tashkilotlarga taqdim etilgan. Hozirgi kunda sport maydonchalarini qurish ishlari yakuniga yetkazildi. Bundan tashqari tuman markazida zamonaviy shaklda 1 dona sendvich panelli qurash maktabi qurish yuzasidan taklif loyiha ishlab chiqildi. Tegishli taklif loyihamalar Qurilish boshqarmasining arxitektura-rejalashtirish Kengashi tasdig‘idan o‘tkazildi.

Hozirgi kunda 8 ta Ko‘hron, Kelachi, Yuqori Beshrabit, Chorvoqguzar, Paxtakor, Keskanterak mahalla fuqarolar yig‘inlarida varkout maydonchalari qo‘rib foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari tuman markazida qurilishi rejalashtirilgan sendvech panelli sport maktabi qurilishi uchun tegishli mablag‘lar manbasi aniqlanmaganligi sababli qurilish ishlarini 2024 yilga o‘tkazish yuzasidan takliflar berilgan.

Tumanda mavjud 41 ta mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan 3975 nafar yordamga muhtoj xotin-qizlar ro‘yxati shakllantirildi.

Ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan shundan 970 nafar ishsiz xotin-qizlarni va 146 nafari o‘z tadbirdorligini yo‘lga qo‘yish orqali imtiyozli kredit ajratish evaziga bandligini ta‘minlash rejasiga asosan o‘tgan davr mobaynida 970 nafari xotin-qizlardan, doimiy ishga 330 nafari joylashtirildi, haq to‘lanadigan jamoat ishiga 34 nafar, kasbga o‘qish 102 ta, ishsizlik nafaqasi tayinlangan 1 nafar, 95 tasiga subsidiya ajratilgan,

23 nafariga yer maydoni ajratib berilgan, 385 nafari o‘zini o‘zi band qilgan, 146 nafariga tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilib bandligi ta‘minlandi.

Tumandagi 41 ta mahalladan 2854 nafar ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlarga 1.872.0 mln so‘m miqdorida moddiy yordam ko‘rsatildi, 3 nafar fuqarolarga ijara kompensatsiyasi to‘lab berildi va 2 nafariga uy-joy qurib berildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 1053 nafar xotin-qizlarga tibbiy xizmat ko‘rsatildi.

Tumanda istiqomat qilib kelayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj 70 nafar xotin-qizlarning uy-joy ta‘mirlab berildi.

Tumanda 585 nafar kasb-hunarga o‘qish istagi mavjud xotin qizlarni bugungi kunga qadar kasb-hunar markazlari orqali 445 nafari o‘qitilgan bo‘lib, 280 nafari bandligi ta‘minlandi.

Tumanda 278 nafar uzoq muddatga ketgan xotin-qizlarning oilasini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish borasida tegishli tartibda o‘rganish o‘tkazilgan bo‘lib, 13 nafariga oilaaviy sharoiti inobatga olinib tegishli yordam ko‘rsatildi.

Tumanda 21 nafar probatsiyada bo‘lgan hamda 2 nafar JIEMdan qaytgan xotin-qizlarning oilaviy sharoitini o‘rganilib, profilaktik suhbatlar o‘tkazildi hamda 8 nafar probatsiyada bo‘lgan xotin-qizlarga tegishli yordam ko‘rsatildi. 1 nafar JIEMdan qaytgan xotin-qizga tegishli yordam ko‘rsatildi..

Bugungi kunda ushbu monamarkaz ishga tushurildi va 6 ta yo‘nalishda

o‘qishlar 25.10. 2023 yildan boshlanadi.

Yo‘nalishlar soni 7 ta Qandolatchilik, Avtoservis xizmat ko‘rsatish,payvandchi, Ayollar sartaroshligi, tikuvchilik, oshpazlik, uqalovchilik, yosh bolalarni tarbiyachi yordamchisi) Kasb-hunarga o‘qitish uchun qamrab olinadiganlar 1100 nafarni tashkil etadi.

Bugungi kunda ushbu monomarkaz ishga tushurildi va 6 ta yo‘nalishda o‘qishlar 25.10. 2023 yildan boshlandi. Shundan 121 nafar ishsiz fuqarolar monomarkazda turli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitilayapti.

“Besh tashabbus olimpiadasi” ning 2-mavsum doirasida tuman bo‘yicha 10 sentabr kunidan mahalla bosqichlari boshlangan bo‘lib, 41 ta mahallalarda jami 1067 ta o‘tkazilgan tanlov va musobaqalarda jami 10 275 nafar va boshqa tanlov va tadbirdorda 60 200 nafar yoshlar qamrab olindi.

2023 yil 10 maydan boshlab, “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida kasb-hunar tanloving sektor hamda tuman bosqichlari tashkil etildi. Tanlovda erkaklar sartaroshi, tikuvchilik, oshpazlik, qakdolatchilik hamda hunarmadchilik yo‘nalishlarida jami 2820 nafardan ortiq yoshlar o‘zlarini bilim va mahoratlarini sinab ko‘rishi.

### **1. Iqtisodiyotni rivojlantirish mahallabay ishlash asosida tadbirkorlik va aholining daromadli mehnat bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan loyihamonini amalga oshirish.**

Tumanning Sarmish hududida “GRANIT STONE INDUSTRY” MChJ korxonasi tomonidan granit toshlarini qazib olish loyihasi amalga oshirilgan. Bundan tashqari ushbu korxona tomonidan 1 hektar yer maydonida granit toshlarini qayta ishslash va pardozlash loyihasini amalga oshirish bo‘yicha yer maydonlari auksion savdolariga chiqarilgan.

Tumanning Qorajon mahallasidan 2 hektar yer maydoni auksion savdolariga chiqarildi. “GRANIT STONE INDUSTRY” MChJ korxonasi tomonidan granit toshlarini qazib olish loyihasi amalga oshirish uchun tanlangan 2 hektar yer maydoni auksion savdolaridan yutib olindi. Hozirda yer maydonida qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, M.Ulug‘bek MFYda “Tianchon ston” MChJ XK tomonidan umumiyligi 2,0 mln.AQSh dollarini bo‘lgan, 50 hektar granit ka’reri o‘zlashtirildi.

Tumandagi 5 ta mahallada asalarichilikda rivojlantirish uchun Navkar, Sarbozor, Chorvoqguzar, Yosh kuch va Uchtut mahallalri belgilab olindi. Hamda

hokim yordamchilari tomonidan maxallalarda xatlov o‘tkazilib asalarichilik bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar faoliyatini kengaytirish, hamda ushbu yo‘nalishda shug‘ullanish istagi bor fuqarolar ro‘yxatlari shakllantirildi va 70 nafariga hokim yordamchilari tomonidan ijobiy tavsiyanomalar berildi. Masalan “Sarbozor” maxallasida yashovchi fuqaro Oblayeva Sadoqatga 33.0 mln.so‘m miqdorida kredit ajratilib evaziga 22 quti asalari uyasi olib berildi, “Chorvoqguzar” maxallasida yashovchi fuqaro Yuldashev Oybekga 32.0 mln.so‘m miqdorida kredit ajratilib evaziga 22 quti asalari uyasi olib berildi.

Moliya-iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishi bo‘yicha 11 154 nafar:

Doimiy 4444 nafar, mavsumiy 736 nafar, Ish o‘rinlarini legiallashtirish (qonuniylashtirish) xisobiga 5974 nafar fuqarolarni bandligi ta’minlanadi.

Moliya-iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishi bo‘yicha 11 154 nafar:

Doimiy 4444 nafar, mavsumiy 736 nafar, Ish o‘rinlarini legiallashtirish (qonuniylashtirish) xisobiga 5974 nafar fuqarolarni bandligi ta’minlanadi.

Tumanda yangi kichik biznes sub’ektlari tashkil etish yil davomida 430 nafar, shundan yanvar oyi rejasি 33 tadan 33 ta, fevral oyida 34 tadan 34 ta, mart oyida 32 tadan 32 ta, aprel oyida 38 ta, may oyiga 37 ta, iyun oyida 36 tadan 36, iyul oyida 33 tadan 34, avgust oyida 35 tadan 36, sentabr oyida 33 tadan 34 ta, oktabr oyida 30 reja berilgan 25.10.2023 yil xolatiga jami 25 ta tadbirkorlik subektlari ochildi.

Bundan tashqari 68 ta YaTT ruyxatdan o‘tkazildi. Tashkil etilgan tadbirkorlik subektlariga 721 nafar fuqarolar bandligi ta’minlandi. Iqtisod va tadbirkorlik yo‘nalishida joriy yilning 10 oy davomida 9943 ta ish o‘rinlari yaratildi. Shundan 4138 ta doimiy, 466 ta mavsumiy, 5339 ta legiallashtirish xisobiga fuqarolarning bandligi ta’minlandi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari uchun yanvar-oktabr oylarida 81,1 mlrd reja berilgan bo‘lib, xozirgi kunda 3 265 ta fuqaroga 80,1 mlrd so‘m kreditlar ajratildi 3265 nafar fuqaroning bandligi ta’minlandi. Xokim yordamchilari tomonnidan yanvar-oktabr oyilarida 214 ta loyixalar shakllantirildi hamda 172 ta yangi loyihalar ishga tushurildi.

Jumladan bugungi kunda Paxtakor MFY bo‘yicha yo‘l yoqasida jami 79 ta xizmat ko‘rsatish loyihasi amalga oshirish buyicha K-savdo platformasi orqali savdoga chiqarilgan. Ushbu auksion savdolaridan yengil turdagи konsruktsiyalar qurish uchun 17 tadbirkor tomonidan sotib olinib, qurilish ishlari amalga oshirilayapti va 8 ta savdo va xizmat kursatish loyihalari ishga tushdi. Bundan tashqari Kelachi, Arabxona, O‘zbekiston, Yangi yo‘l, Sarbozor, Vomitan, Yangi xayot va boshqa mahallarida 100 dan ziyod xizmat ko‘rsatish sub’ektlari ishga

tushurildi.

Bundan tashqari Mahallalarni ishsizlikdan holi hududga aylantirish bo‘yicha ishlarni to‘g‘ri tashkil qilish bo‘yicha aniq rejalar qilingan bo‘lib, yeng asosiy bandlikni ta‘minlash bo‘yicha ishlar PF-93 farmogan asosan tumanda salohiyatli 53 ta tadbirkorlar tanlab olingan bo‘lib, 2 ta yirik tadbirkor 200 dan ortiq ish o‘rni, 2 ta tadbirkor 100 dan ortiq ish o‘rni, 14 ta tadbirkor 51 dan ortiq ish o‘rni yaratish bo‘yicha ishlarni boshlab yuborgan. Jumladan: “MENGITEKSTIL GROUP” MChJ Turkiyalik investorlar tomonidan tashkil etilgan korxona bo‘lib, tumanning “Beshrabot” MFY hudida umumiyligi 1,0 mln. AQSh dollariga teng tikuvchilik sexi loyihasi amalga oshirilgan.

Navbahor tumanidp “Xatirchi tajribasi” asosida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ishsizlikdan holi hududga aylantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Kelgusi yilda tumanda sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sohalari va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish, ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha tasdiqlangan ko‘rsatkichlarga erishilishi ta‘minlandi.

Tumandagi hokim yordamchilari hamda biriktirilgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mahallalarda ishsizlikni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazildi. Bugungi kunda 2950 nafar ishslash istagi bo‘lgan fuqarolar ro‘yxati to‘liq shakllantirildi. 2 371 nafarini bandligi ta‘minlandi.

Jumladan 298 nafar fuqarolar yangidan tadbirkorlik faoliyatini boshladi, musol uchun “Sarbozor” MFY xududida joylashgan “sarbozor-asl nonlari” OK non va non mahsulotlarini ishlab chiqarish umumiyligi loyiha qiymati 73.0 mln so‘m bo‘lib shundan asbob- uskunalarni xarid qilish uchun hokim yordamchisi tomonidan imtiyozli 33 mln so‘m kredit mablag‘i ajratilib 3 nafar fuqarolar bandligi ta‘minlandi.

3265 nafari olaviy tadbirkorlik dasturi doirasida imtiyozli kredit ajratildi.

Misol uchun fuqaro Ochilov Obit tomonidan 32 mln so‘m mablag‘ evaziga dala do‘koni tashkil etilib 2 nafar fuqaro ish bilan ta‘minlandi

521 nafari bandlik dasturi bo‘yicha doimiy ishga joylashtirildi. Misol uchun “Armijon” maxallasida yashovchi fuqaro Boboqulova Ziyodani "Ziyo Aziz" OK ga yordamchi ishchi lavozimiga ishga joylashtirildi.

2949 nafar fuqaroga 20 sonli qaror bo‘yicha yer ajratildi.

## **2. Sanoat va qurilish sohasiga doir loyihalarni amalga oshirish:**

2023 yilda umumiyligi 364,4 mlrd.so‘m bo‘lgan, 19 ta sanoat loyihalarni

tarmoq jadvallari tijorat banklari va tadbirkorlar bilan ishlab chiqildi. Hozirda umumiy qiymati 16,8 mldr.so‘m bo‘lgan, 8 ta loyihalar foydalashnishga topshirildi.

Misol uchun, "PURE NATURE OILS" MChJtomonidan

56 mldr.so‘mlik o‘ismlik yog‘i ishlab chiqarish, "PARADISE GARDEN" MChJ QK tomonidan 11 mldr.so‘mlik sharbat va vino qadoqlash, "VIK ENGINEERING" MChJ XK tomonidan 35 mldr.so‘mlik burg‘ulash texnikalariga ehtiyot qismlar ishlab chiqarish, "MENGI TEKSTIL GROUP" MChJ XK tomonidan 50 mldr.so‘mlik poyabzal ishlab chiqariladi.

Shuningdek, umumy qiymati 60,5 mldr.so‘mlik, 3 ta loyihani ishga tushirish ishlari olib borilmoqda.

### **3. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish borasida amalga oshiriladigan loyihalar.**

2023 yilda 733 hektar yer maydonlarini dehqon xo‘jaligi uchun ajratish bo‘yicha tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib 27-yanvarda lotlarga chiqarildi.

Agrar va oziq-ovqat sohalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini 1,2 baravarga oshirib, 20 ming aholi bandligini ta’minlash choralarini ko‘rish belgilab olindi. Bu borada 2023-2024 yillarda yer maydonlarini o‘zlashtirish orqali amalga oshirish belgilandi. 14 ta mahalla kartoshka, sabzavot, uzum va anor yetishtirishga ixtisoslashtirish belgilab olinib, ekish ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunga qadar ochiq tanlov asosida 2938 nafar fuqarolarga 685 hektar yer maydonlari ajratildi.

"NAVBAHOR TOMORQA XIZMATI KLASTERI" MChJ, "YETTI XAZINA TOMORQA XIZMATI" MChJ, "QUTLUG’ SETORA KELAJAK SARI" OK, "HOSILBEK ASILBEK TA’MINOTI" MChJlar tomonidan umumiy qiymati 18,3 mldr.so‘m bo‘lgan tuxum va go‘sht yo‘nalishida parrandachilik kompleksi loyihalari amalga oshirish rejalashtirildi va tegishli xujjatlari rasmiylashtirilmoqda. Kredit mablag‘lari to‘liq ajratilgan.

Navbahor tumanida xozirgi kunda jami 400 tonnalik muzlatgich ishga tushurilgan.

Jumladan “Mehnat” mahallasida joylashgan “Jasmina Sarvinoz” fermer xo‘jaligi tomonidan 100 tonna sig‘imli muzlatgich ishga tushirilgan, “Keskanterak” mahallasida joylashgan “Farangiz Shabnam 2020” MChJ tomonidan 300 tonna sig‘imli muzlatgich qayta ta’mirlanib ishga tushirilgan.

Undan tashqari “Qorojon” mahallasidagi “Navbahor tomorqa xizmati klasteri”

MChJ tomonidan 400 tonnalik, “Keskanterak” “Azim bobo yuksalish” MChJ tomonidan 200 tonnalik muzlatgichli omborxona tashkil etish loyixalarining belgilangan muddatlarda ishga tushurish yuzasidan tarmoq jadvallari tuzildi.

“Uchtut” mahallasidagi “Fayzulla kelajagi orzu bog‘i” xususiy korxonasi tomonidan 100 tonnalik muzlatgichlar ishga tushurildi.

Pillachilik soxasi bo‘yicha yanvar oyining o‘zida 1022 nafar fuqaroning bandligi ta’minlandi.

“Keskanterak” mahallasida jami 400 hektar yer maydonida Turkiya davlatining “Kaliskan Tarim” MChJ kompaniyasining tomonidan umumiy qiymati 1,5 mln. AQSh dollari bo‘lgan, zira mahsulotlari Turkiya davlatidan keltirilgan va yer maydonlariga ekildi.

Jumladan pillachilik soxasi bo‘yicha joriy yilning 7 oy o‘zida 14 298 nafar fuqaroning bandligi ta’minlandi.

#### **4. Ijtimoiy soha ob’ektlarini ishga tushirish hamda aholiga munosib ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish loyihalarini amalga oshirish.**

Navbahor tuman maktabgacha ta’lim tashkiloti tomonidan Qorovultepa mahalla fuqarolar yig‘inida 2 ta 50 o‘rinli jami 100 o‘rinli oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil qilindi. Bundan tashqari Yangiobod mahalla fuqarolar yig‘inida 120 o‘rinli davlat xususiy sherikchilik asosida maktabgacha ta’lim muassasasi, Karvon mahallasida 1 ta 50 o‘rinli, Qalqonota mahallasida 1 ta 50 o‘rinli, Vomitan mahallasida 1 ta 35 o‘rinli, O‘zbekiston mahallasida 2 ta 93 o‘rinli, Halovattepa mahallasida 1 ta 21 o‘rinli oilaviy maktabgacha ta’lim muassasalari tashkil etildi.

Bundan tashqari 8 ta mahalla fuqarolar yig‘iniga 8 ta to‘plam vorkaut jihozlari qurish hamda 1 ta kurash maktabi qurish yuzasidan taklif-loyihalar ishlab chiqilib, viloyat Qurilish boshqarmasining Arxitektura rejalshtirish Kengashi tasdig‘idan o‘tkazildi. Hozirgi kunda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun tegishli tashkilotlardan xulosalar olinib, loyihalash ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda 8 ta Ko‘ron, Kelachi, Yuqori Besrabot, Chorvoqguzar, Paxtakor, Keskanterak mahalla fuqarolar yig‘inlarida varkout maydonchalari qo‘rib foydalanishga topshirildi

Navbahor tuman 2023 yil aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish 35 072 nafar fuqarolarni bandlikni ta’minlash reja dastur qilingan bo‘lib,

Joriy yilning 10 oylik yakuniga ko‘ra 34 970 nafar fuqarolarni bandligini taminlangan yillik rejaga nisbatan 99,7 % ni tashkil etmoqda.

## Shundan

- Doiyimiylar ishlarga yillik reja 9006 ta amalda 8554 tani tashkil qilmoqda Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish yillik rejasi 19 161 ta amalda 19 893 tani tashkil etmoqda.

- Legallashtirish hisobiga yillik 6905 ta amalda 6523 tani tashkil etmoqda.

Bandlik dasturi doirasida qilingan ishlarni sohalar kesimida tahlil qilinganda

Qurilish, transport va kommunal sohasida yillik reja 1156 ta, amalda 1390 tani tashkil etmoqda yillikka rejaga nisbatan 120,2 % ni tashkil etmoqda.

Investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish: sohasida yillik reja 1113 ta, amalda 953 ta yillik rejaga nisbatan 85,6 % ni tashkil etmoqda.

Qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligi: sohasida yillik reja 21 649 ta, amalda 22 239 tani tashkil etib yillikka nisbatan 102,7 % ni tashkil etmoqda.

Xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish xisobiga: sohasida yillik reja 11 154 ta, amalda 10 388 tani tashkil etmoqda yillikka nisbatan 93,1 % ni tashkil etmoqda.

2022-2023 yillarda amalga oshirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi ishlar Xalq depugatlari Navbahor tuman Kengashining 2023 yil 25-oktabrdagi VI-65-116-5-73-K/23-sonli qarori bilan tasdiqlandi.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

## QAROR QILADI

1. Tuman hokimi A.O‘roqovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 25 noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Navbahor tumanida 2022-2023 yillarda amalga oshirish yuzasidan tumanning “Yo‘l xarita”si ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Navbahor tuman hokimi va tumandagi sektorlar rahbarlari (B.Isoqov, U.Shukurov, F.Ergashev)ga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 25 noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Navbahor tumanida 2022-2023 yillarda amalga oshirish

yuzasidan tumanning “Yo‘l xarita”si, shuningdek, har bir sektor kesimida “Yo‘l xarita”larida belgilab olingan chora tadbirlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli bajarish hamda 5 ta tashabbus belgilangan topshiriqlar ijrosini nazorat qilish vazifasi topshirilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 25 noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Navbahor tumanida 2022-2023 yillarda amalga oshirish yuzasidan tumanning “Yo‘l xarita”si, shuningdek, har bir sektor kesimida “Yo‘l xarita”larida belgilab olingan chora tadbirlarijrosini o‘z vaqtida va sifatli bajarish hamda 5 ta tashabbus belgilangan topshiriqlar yuzasidan deputatlik nazoratini o‘rnatsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Bobonazarov) va “Navbahor tongi” taxririyati (F.Qodirova)ga “Yo‘l xaritasi” hamda 5 tashabbus bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Navbahor tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Yo.Boymurodova) zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**A.Ўреков**